



O'G'IRLIK JINOYATI BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTİKASINI TAMINLASHNING KVALIFİKATSİON AHAMIYATI

Muallif: Mo`minjonov Muhammadrashod Sherzodbek o`g`li

Kalit so`zlar: o`g`rilik , jinoyat subyekti, jinoyatlarning sodir etilish usuli, jinoyat sodir etish vaqti, sababiy bog`lanish, o`g`rilik jinoyati turlari, bosqinchilik, firibgarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`g`rilik jinoyatining sodir etilish hamda kvalifikatsiya qilishda vujudga kelayotgan muammo va kamchiliklarni tahlil qilish ushbu turdagi jinoyatlarning nazariy jihatdan obyektı, subyekti, sodir etilish usuli va sharoitlari, ushbu jinoyatlarning turlarini o`rganish asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Abstract: Analyzing the problems and shortcomings arising in the commission and qualification of the crime of looting by means of this robbing and smolling appropriating, our main goal is to study the theoretical object, subject, method and conditions of this type of crime, and the types of these crimes. is counted.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga muvofiq mamlakat iqtisodiyotining negizini turli shakldagi mulk tashkil etadi. Mulk mutloq dahlsiz hisoblanadi va davlat tomonidan qo`riqlanadi, unga nisbatan har qanday tajovuz qonunga zid deb topiladi.

Sudlov amaliyotini o`rganish sudlar o`zgarar mulkini o`g`rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo`yicha qonunlarni asosan to`g`ri qo`llayotganligini ko`rsatdi. Shu bilan birgalikda ularning amaliy ish faoliyatida ba`zi bir xato va kamchiliklar uchramoqda. Bir qator muammolar bo`yicha qonun talablarini tushunishda bir xillik mavjud emas.

Ushbu masalalarni o`rganishda turli xildagi muammo va kamchiliklarga yetarlicha yo`l qo`yilmoqda .

Jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo`qligida yoki ular bor bo`lsada, ularga bildirmasdan o`zganing mol-mulkini yashirin talon-toroj qilish o`g`rilik hisoblanadi. Bordi-yu jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkining olinayotganligini ko`rgan bo`lsada, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o`ylagan bo`lsa, bunday qilmishni ham o`g`rilik deb tavsiflash lozim.

O`zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish bilan boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan sezib qolinganiga qaramasdan



aybdor tomonidan mulkka egalik qilish maqsadida ularning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib qilingan harakatlar talonchilik deb, hujum qilib hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatganda yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitganda esa bosqinchilik deb tavsiflanadi.

Zo‘rlik ishlatish harakatlari aybdor tomonidan o‘zganing mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishi tugagandan keyin qo‘lga tushishdan qutilish maqsadida sodir etilgan bo‘lsa, bunday harakat talonchilik yoki bosqinchilik deb qaralmaydi. Zo‘rlik ishlatishning xususiyati va kelib chiqqan oqibatlariga qarab qilmishni o‘g‘rilik deb, boshqa jinoyatlarning belgilari bo‘lganda jinoyatlar majmui bo‘yicha tavsiflash lozim.

Aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib yetish qobiliyatiga ega bo‘lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo‘lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o‘g‘rilash o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish deb tavsiflanishi kerak.

Jabrlanuvchining egnida bo‘lgan kiyim-kechagi, qo‘lidagi yoki bevosita yonida bo‘lgan sumka, chamadon va boshqa anjomlaridan sodir etilgan yashirin talon-toroj qilish kissavurlik deb hisoblanadi va JKning 169-moddasi 2-qismi “a” bandi bilan tavsiflanadi.

Aybdor, jabrlanuvchi va boshqalarning ko‘z oldida o‘zganing mulkini egallab olayotganligini va ular uning harakatlarining jinoiy xususiyatini tushunganligini anglaganda, o‘zganing mulkini oshkora talon-toroj qilish talonchilik hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 166-moddasi 2-qismi “a” bandi bilan qilmishni tavsiflashda quyidagilarni e‘tiborga olish lozim:

zo‘rlik ishlatib talonchilik qilish nafaqat hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan aniq zo‘rlik ishlatilganda, balki shunday zo‘rlikni ko‘llash bilan qo‘rqitganda ham, mavjud bo‘ladi;

zo‘rlik yoki uni qo‘llash bilan qo‘rqitish mulk ixtiyorida, tasarrufida yoki qo‘riqlorida bo‘lgan shaxsga nisbatan, shuningdek, o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq egalik qilishga qarshilik qiluvchi shaxslarga nisbatan ham qarshi yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin;

hayoti yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lmagan zo‘rlik deganda, yengil tan jarohati yetkazishni tushunish lozim. Bunday zo‘rlik jabrlanuvchiga jismoniy azob



beruvchi yoki uning erkinligini cheklab qo'yuvchi harakatlarda ifodalanishi mumkin.

Tovlamachilikni bosqinchilik va talonchilikdan farqlashda tovlamachilikda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish mulkni zo'rlik ishlatayotgan vaqtda emas, balki kelajakda ko'lga kiritishga qaratilishiga e'tibor berish lozim. Agar qo'rqitish amalda ishlatilsa, qilmish JKning tovlamachilik haqidagi moddasi bilan va asoslar bo'lganda qo'rqitish amalga oshirilayotganda sodir etilgan harakat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddasi bilan ham tavsiflanishi lozim.

O'zgalar mulkini talonchilik va o'g'rilik bilan egallagan va aybdor bu mulkdan o'z xohishicha foydalanish yoki uni tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lgan vaqtdan boshlab, bosqinchilik esa jabrlanuvchining hayot va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish yoki shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib hujum boshlangan vaqtdan boshlab, tugallangan hisoblanadi.

Hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda uning ishlatilishi jabrlanuvchining hayoti uchun aniq bo'lgan xavfni vujudga keltiruvchi holat (masalan, jabrlanuvchini bo'g'ish, boshini suv ostida ushlab turish va h.k.) tushuniladi.

Sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga sog'lig'ining buzilishiga sabab bo'lgan tan jarohati yetkazish yoki shunday tan jarohatini yetkazish xavfini tug'diruvchi harakatlar (chakkaga, quyosh o'rilmisiga urish va h.k.) tushuniladi.



Qonun mazmuniga ko'ra bosqinchilikda zo'rlik ham jismoniy, ham ruhiy bo'lishi mumkin.



Jinoyat kodeksining 164-modda 2-qismi “a” bandida nazarda tutilgan bosqinchilik yo‘li bilan mulkka egalik qilishning belgilaridan biri qurol yoki qurol sifatida ishlatiladigan boshqa narsalarni qo‘llash hisoblanadi.

Sudlar qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan ashyolarni jinoyat quroli deb topishda O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi Qonuniga amal qilishlari lozim.

Bila turib yaroqsiz quroldan yoki yolg‘ondakam quroldan (masalan, to‘pponcha yoki start to‘pponchasi maketlaridan) badanga shikast yetkazishni niyat qilmagan holda foydalanilganda, hayot va sog‘liq uchun xavfli bo‘lmaganda qurolli bosqinchilik sifatida baholash mumkin emas.

Bosqinchilik jarayonida aybdor tomonidan ruxsatnoma talab qilinadigan o‘q otar qurol ishlatilganda hamda qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa narsalarni (portlovchi, zaharli moddalarni va h.k.) ishlatib bosqinchilik sodir etilganda uning harakatlarini ushbu jinoyatlar majmui bilan tavsiflash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998-yil 17-apreldagi “Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 11-son Plenum qarorining 5-bandiga muvofiq o‘zganing mulkini talon-toraj qilishdan iborat bo‘lgan aybdorning harakatlariga huquqiy baho berishda uning sodir etilishi usulidan (o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik) qat’i nazar, jinoyat Jinoyat kodeksi moddasining og‘irroq jazoni ko‘zda tutuvchi qismi bilan tavsiflanishi lozim va ushbu moddaning boshqa qismlari bilan qo‘shimcha tavsiflanishi talab etilmaydi. Masalan, jinoyat JK 169-moddasi 4-qismi bilan juda ko‘p miqdorda talon-toraj qilish belgisi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinganda, JK mazkur moddasining 1, 2 va 3-qismlari bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya talab etilmaydi.

Davomli talon-toraj sodir etilgan hollarda aybdorning harakatlari talon-toraj qilingan umumiy summani hisobga olgan holda tavsiflanishi zarur.

Agar shaxsning harakatlari davomli jinoyat xususiyatiga ega bo‘lmasdan bir necha mustaqil epizodlardan misol uchun, o‘g‘rilik, talonchilik, bosqinchilik va boshqalardan iborat bo‘lsa, bu harakatlar talon-toraj qilingan umumiy summadan kelib chiqqan holda tavsiflanishi mumkin emas. Bunday hollarda jinoyatni o‘zganing mulkini talon-toraj qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari dispozitsiyasiga muvofiq, jumladan takroriylik belgisi bilan tavsiflash lozim.

G‘ayriqonuniy kirish deganda o‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik qilish maqsadida uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binoga kirish tushuniladi.




G'ayriqonuniy kirish nafaqat yashirin, balki ochiqdan-ochiq, to'siqlarni, odamlarning, shuningdek, qo'riqlovchi xodimlarning qarshiligini yengib sodir etilishi mumkin. Aldash yo'li bilan, shuningdek, qalbaki ruxsatnomalardan foydalanib, masalan, santexnik, aloqa bo'limi xodimi, gaz, elektr energiya va yong'indan nazorat qiluvchi xodimlar va boshqalar tariqasida binoda paydo bo'lishi g'ayriqonuniy kirish deb baholash kerak.

G'ayriqonuniy kirish birdan-bir maqsad bo'lib qolmasdan, aybdor o'g'rilab ketmoqchi bo'lgan boylıklar saqlanayotgan joyga kirib borishning uslubi hisoblanadi. Shu sababli uy-joydan, binodan yoki boshqa omborxonadan o'zganing mulkini talon-toroj qilish niyati g'ayriqonuniy kirishdan oldin yuzaga keladi.

Agar aybdor xonaga boshqa sabablar bilan kirgan bo'lib, moddiy boylıklarni yashirin yoki ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish maqsadi keyin paydo bo'lsa va bu niyatini u amalga oshirsa, qilmishda talon-torojning tushuntirilayotgan tavsiflash belgisi mavjud bo'lmaydi.

Uy-joy deganda kishilarning doimiy yoki vaqtinchalik turishiga mo'ljallangan (shaxsiy uy, xonadan, mehmonxonadagi, sanatoriyadagi xona, dala hovli, bog' hovli va boshqalar) bino, shuningdek, uning tarkibiga kiruvchi dam olish uchun, mulkni saqlash uchun yoxud insonning boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun (balkonlar, oynaband ayvonlar, omborlar va boshqalar) tushuniladi.



Omborxona deganda, tovar-moddiy boylıklarni doimiy yoki vaqtincha bo'lsada saqlash, tashish, talon-toroj qilishdan, tabiiy ofatlardan, aynishdan va yo'q bo'lib ketishdan asrash uchun maxsus jihozlangan, moslashtirilgan alohida qurilma yoki joy tushuniladi.



Maxsus moslamalar (ilgaklar, qarmoqlar, magnitlar, so‘rib oluvchi rezinka ichaklar, qisqichlar va hokazo)dan foydalanib o‘zganing mulkini egallash tushuntirilayotgan uy-joy, omborxon va boshqa xonaga kirib qilingan talon-torojning tavsiflash belgisini tashkil etmaydi.

O‘g‘rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlarini tergov qilishda va sudda ko‘rishda ularning sodir etilishiga imkon bergan barcha sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf qilish maqsadida protsessual qonun asosida tegishli choralar ko‘rilishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi ushbu toifadagi ishlarni apellatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rayotganda birinchi bosqich sudlari tomonidan qonunlarni tatbiq etishda yo‘l qo‘yilgan xatolarni muntazam tahlil qilib borish va bartaraf qilishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
2. <http://press-service.uz/uz> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
3. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi).
4. <http://akadmvd.uz> (O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
5. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta’lim portali).
6. <http://utube.uz/ru> (Utube.uz ta’lim videoportali).
7. <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
8. <http://www.xs.uz> («Xalq so‘zi» gazetasi).